HADIS VA UNING TURLARI

Raimqulova Zulayxo

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali

Rus tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Tel: 998939487690

Annotatsiya

Ushbu maqolada hadis ilmi, uning kelib chiqishi haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan. Hadislarning turlari, hadislarning qaysi manbalarga asoslangan holda ishonchli deb hisoblashimiz haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada Imom Buxoriy shaxsi haqida ham to'xtalib o'tilgan. Buxoriyning ilmiy adabiy merosi hadis ilmiga qo'shgan ulkan hissasi haqida qisqacha bo'lsa ham yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Hadis, hadisshunoslik, Islom, din, hadisshunos, Imom al-Buxoriy, muhaddis, sahih, nosahih (g'ayrisahih), Islomshunos, sunnat, ibodat, itoat, shariat.

Аннотация

В данной статье представлен краткий обзор науки хадисов и её происхождения. Также приводится информация о типах хадисов и источниках, на которые можно полагаться. В статье также рассматривается личность имама Бухари. Кратко обсуждаются научное и литературное наследие Бухари и его огромный вклад в науку хадисов.

Ключевые слова: хадисы, изучение хадисов, ислам, религия, учёный-

хадисовед, имам аль-Бухари, учёный-хадисовед, сахих, несахих (недостоверный), исламский учёный, сунна, поклонение, повиновение, шариат.

Abstract

This article provides a brief overview of the science of hadith and its origins. It also provides information on the types of hadiths and the sources on which we can consider them reliable. The article also discusses the personality of Imam Bukhari. The scientific and literary heritage of Bukhari and his great contribution to the science of hadith are briefly discussed.

Keywords: Hadith, hadith studies, Islam, religion, hadith scholar, Imam al-Bukhari, hadith scholar, sahih, non-sahih (unauthentic), Islamic scholar, sunnah, worship, obedience, Sharia.

Kirish. Avvalo so’z boshida aytishim kerakki yurtimizda hadis ilmiga berilayotgan e’tibor taxsinga loyiq desam mubolag’a bo’lmaydi. Hadis ilmini o’rganish istagida bo’lgan yosh-u qariga keng imkoniyatlar mavjud. Yurtimiz kitobxonlari uchun har qaysi kitob do’konida olib o’qish uchun Hadis va Hadisga oid kitoblar bor. Osmoni musaffo yurtimizda har qaysi sohada ilmiy izlanishlarni olib boruvchilar jumladan Hadis ilmini chuqur o’rganishni hoxlovchilar uchun ham keng imkoniyatlar mavjud. Bunday imkoniyatlardan to’g’ri foydalana olish esa o’zimizga bog’liq. Hadislarda barcha insoniy xususiyatlar o’z aksini topgan. Masalan onani e’zozlash. Onalarimizni xurmat qilish o’zbek millatiga ham xos bo;lgan xususiyatlar biridir. Hadislarda ham eng avval onanga, onanga, onanga keyin otanga yaxshilik qil deb buyurilgan. O’zbekchiligimizda ham onalarimizni xurmatlash ularga imkon qadar yaxshilik qilishga chaqiriladi. Jannat onalarimiz oyog’i ostida degan maqol ham xalqimiz orasida keng tarqalgan.

“Hadis” so’zi arab tilida “so’z” degan ma’noni anglatadi. Hadis – islom dinida Qur’ondan keying o’rinda turadigan ikkinchi muqaddas manba bo’lib, Muhammad (s.a.v.) payg’ambarning hayoti va faoliyati, uning diniy va ahloqiy ko’rsatmalarini o’zida jamlagan manba hisoblanadi.

Muhammad (s.a.v.) payg’ambar qilgan biron ish, aytgan gap yoki boshqalar qilgan biron bir ishga bo’lgan munosabat ya’ni bunisi to’g’ri yoki aksincha bunisi noto’g’ri deb bildirilgan fikri, hatti – xarakatlari yoki ko’rsatmalari hadis hisoblanadi.

Hadislarda islom dinining qonun-qoidalari bilan birgalikda insoniy fazilatlar ham ko’rsatiladi. Inson nomiga dog’ tushiradigan yomon sifatlar qoralanadi. Yaxshilikka buyurilib yomonlikdan qaytariladi. Hadislarda insonnig jamiyatdagi o’rni qayerda o’zini qanday tuta bilishi, kimga qanday munosabatda bo’lish yoritib berilgan. Eng avvalo ota-onaga munosabat, ota-onaning farzand oldidagi burch va huquqlari, farzandning ota-ona oldidagi burch va huquqlari to’laqonli aks etgan. Oilada er-xotin munosabatlari, insonlar o’rtasida do’stlik, qarindosh- urug’chilik munosabatlari, qo’ni-qo’shnichilik o’rtasida adolatli, mehr-oqibatli bo’lish, mehr-oqibat, halollik, poklik o’z aksini ko’rsatgan. Adolatsizlik, xiyonat, omonatga xiyonat, o’zaro xasad, kibrga ketish, chaqimchilik, insonlar o’rtasida fitna chiqarish, g’azabga berilish, yolg’onchilik, insonlarga zulm o’tkazish , bir-biriga adovat qilish kabi insoniy xususiyatlar qoralangan. Inson dunyoga kelar ekan u eng avvalo inson ongli mavjudot bo’lib yaraladi. Barcha atrofdagi narsalarga hatti xarakatlari bilan ko’z qarashlari bilan bo’lsa ham o’z javobini qaytaradi. Sekin asta ulg’aygani sari insonlar orasida o’zini tutishni, jamiyatda o’rnini topishni boshlaydi. Atrofidagilar, eng avvalo ota-onasi, do’stlari, qo’shnilar, qarindosh-urug’lari uni o’rab turgan muhit uni qanday inson bo’lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Hadislar insondagi hulq-atvorni shakllanishiga ham yordam

beradi. Hadislarni o'rganishdan maqsad o'quvchi yoshlarni eng avvalo vatanga, oilaga mehr-muhabbatli bo'lish, o'zidan kattalarni xurmat kichiklarni izzat qilishni shakllantirish, sabr toqat tushunchalarini shakllantirish orqali shoshqaloqlikdan qaytarish, insonparvar bo'lish, islom va uning asosiy ta'limotimujassamlangaт «Qur'oni Karim» da insonni ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy shakllantirishda jamiyatga foydali komil inson bo'lib tarbiyalashda muhim manba sifatida o'rganish.

Hadislarni jamlash bilan yetuk olimlar ya'ni muhaddislar shug'ullangan. Bular Abu Muhammad ibn Ismoil al-buxoriy, Imom Muslim ibn al-Xajjoj, Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Imom Dovud Sulaymon Silistoniy, Imom Ahmad al-Nasoniy, Imom abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja kabi olimlar shular jumlasidan. Ularni haqiqiylarini soxtalari bilan ajratishga o'z ilmlarini kerak bo'lsa umrini sarflagan deya olamiz.

Hadislar sahih (ishonchli) va nosahih (noishonchli) bo'lishi mumkin. Hozirgi musulmon olamida keng tarqalgani va tan olingani yurtdoshimiz Imom Buxoriyning to'rt jilddan iborat "Al-Jome as-Sahih" hadislar to'plami kitobi xisoblanadi. Imom Buxoriydan keyin Imom at-Termiziy buyuk mahaddis olim sifatida islom olamida tan olingan.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy butun umri davomida hadislar yeg'ish, ularni yodlash va haqiqiyligini yoki soxtaligini isbotlash bilan shug'ullangan. Uning asari "Sahih al-Buxoriy" nomi bilan ham mashxur. Hozirgi kunda eng ishonchli hadislarni Buxoriy hadislaridan topishimiz mumkin.

Muhammad (s.a.v.) payg'ambar davrida hadislar yozib olinmagan sahobalar ya'ni payg'ambarning oila a'zolari, ular bilan suhbatlashgan, ko'rgan insonlar keyinchalik bir- birlari bilan o'zaro ma'lumotlar almashishgan. Hadislarni birinchi

marta yozish bilan shug'ullangan olimlar Rabee ibn Sabeh, Said bin Abi Aruba, Molik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzoiy Shoshiy, Sufyon Savriy Kufiy va boshqalar deb manbalarda qayd etilgan.

Imom Buxoriy hadisga oid ma'lumotlarni yeg'ib haqiqiyligini o'rganib , qismlarga ajratib, kitob shaklida jamlagan. Markaziy Osiyo uyg'onish davrining ko'plab namoyondalari Islom va jahon sivilizatsiyasiga juda katta va bebaho xissa qo'shganlar. Imom Buxoriyning boy merosini asrab-avaylash va o'rganish islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida Samarqand shahrida Imom al-Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi bunyod etilgan[1]. U yerda Imom al Buxoriyning ilmiy adabiy merosini chuqur o'rganib, ilmiy amaliy tadqiqotlar o'tkazish uchun keng sharoitlar yaratilgan. Olimlarimiz Buxoriy merosini o'rganishlari uchun keng miqyosda izlanishlar olib borishlari mumkin.

To'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriydir. Buxoro shahrida hijriy hisobda 194-yil shavvol oyining 13-kuni (810-yil 21-iyul) kuni dunyoga kelganligi manbalarda qayd etilgan. Boshqa ko'plab olimlardan farqli ravishda Al-Buxoriyning tug'ilgan yili va paytining aniq ko'rsatilishiga sabab uning otasi Ismoil o'z davrining taniqli va ilmli kishilaridan biri bo'lgan[2]. U o'g'lining tug'ilgan kunini va yilini o'z qo'llari bilan yozib qoldirgan va o'z zamondosh olimlariga taqdim etgan. Shuning uchun ham bu ma'lumotning to'g'ri va aniqligiga shubha qilmasak ham bo'laveradi. Buxoriyning otasi juda erta vafo etgan va onasining tarbiyasi bilan voyaga yetadi. U yoshligidan juda aqlli, zexnli, o'tkir idrokli bola bo'lgani uchun turli xil ilm-fanlarga juda qiziqqan, ayniqsa hadis ilmiga qiziqishi kuchli bo'lgan. Manbalarda keltirilishicha u 10 yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli roviylardan eshitgan hadislarini o'rganib yod olgan, Abdulloh ibn Muborak, Vakiy kabi olimlarning hadislar keltirilgan to'plamlarini yod olgan. Buxorodagi yetuk allomalardan dars

olgan. Hadis ilmida o'tkir zehn va kuchli olim bo'lib ulg'aygan. Imom Buxoriy 16 yoshida onasi va akasi Ahmad bilan Makka shahriga Haj qilgani boradi. O'sha yerda qoladi va hadis ilmini o'rganishda davom etadi. U yerdagi ulamolardan hadislarni yozib olib, o'sha davrdagi islom olamida mashhur bo'lgan ilmiy markazlarga safar qilishni boshlaydi. Qishloq va shaharlarni kezadi. Hadis ilmiga aloqador bahs va munozaralarda qatnashadi. Uzoq yillik mehnati natijasi o'laroq u hadis ilmida yuksak darajaga, kamolotga erishadi. 600 mingga yaqin hadislarni yod oladi va ularni sahih va g'ayrisahihga ajratadi[3]. Buxoriy hadisshunos olimlar orasida «Imom ul-Muhaddisiyn» (Barcha muhaddislarning peshvosi) degan xurmat bilan tilga olinadi. Buxoriy yashagan davrdan avvalgi hadis kitoblarda sahih va g'ayrisahih hadislar aralash berilgan. Buxoriy har bir Hadisga chuqur yondoshib o'rganadi va ularni birma-bir ajratib chiqadi. Shunday og'ir davrda Buxoriy «Al-Jome as-Sahih» asarini 16 yilda yozib tugatgan. Unda 7275 dan ortiq hadislar jamlangan. Hadislarni boblarga ajratgan. Bundan tashqari Imom Buxoriyning «Al-Adab al-Mufrad» («Odob durdonalari») , «Birr ul-Volidayn» («Ota-onani hurmat qilish»), «At-tarix al-Kabir» («Katta tarix»), «At-Tarix al-Avsad» («O'rtacha Tarix»), «At-Tarix as-Sog'iyra» («Kichik Tarix»), «Al Jome al- Kabir» («Katta Hadislar to'plami»), «Kitab al-Kunya» («Hadis roviylarining tahalluslari») kabi 20 dan ortiq asarlari meros qilib qoldirilgan. Buxoriy asarlarining yirik hajmi o'sha davrning diniy va ijtimoiy fanlarini keng qamrab ilgani kishini hayratga solidi[4].

O'sha davrda hadislar to'plami «Sunna» deb nomlangan. Sunnat va Hadis bir- biridan farqlanadi biz avvalo ularni farqlay olishimiz kerak.

Hadis – gaplashish va biror narsaning xabarini berish ma'nosida kelgan matnning nomidir. Keyin Muhammad (s.a.v.) Payg'ambarning gapirgan gaplari , bajargan ishlari, biror masalaga bildirgan rozilik fikrlari yoki sifatlari hadis

deyilgan. Sunnat va Hadis bir biriga teng emas.

“Sunnat” arab tilida lug’aviy ma’noda “tariqat, ma’naviy yo’l” ma’nosini anglatadi. Muhammad (s.a.v.) Payg’ambarning sunnatlari deb u kishining tariqatlarini, tutgan yo’llarini, (yo’nalish) tushunamiz.

Olimlarning fikrlaricha Payg’ambar Muhammad (s.a.v.)dan asar bo’lib qolgan gap, ish, taqrir, tana tuzilishlari ahloqiy sifatlar va tarjimai holga tegishli bo’lgan ma’lumotlar “sunnat” deyiladi.

Muhaddis ulamolarning fikricha, Hadis va sunnat Payg’ambar s.a.v. ning gapirgan so’zlari, bajargan ishlari yoki biron ishni bajarganda bu ishdan rozi bo’lganliklari yoki sukut saqlaganliklari sifatlarining ifodasidir. Bularning hammasi Hadis bo’lib, shar’iy hukm hisoblanadi. Ammo bu ikki tushuncha lug’aviy jihatdan ham ma’no jihatdan ham bir biridan farq qiladi[5].

Ma’lumki, sahobalar shariat ahkomlarini Muhammad (s.a.v) Payg’ambar orqali Qur’oni Karimdan olganlar. Qur’on oyatlarida esa, ko’pgina hukmlar umumiy tarzda bayon qilingan. Misol uchun, Qur’onda namoz o’qishga amr qilingan, lekin uni qanday ado qilish, vaqtlari va rakatlarining miqdori ayon qilinmagan. Shuningdek, zakotni berishga ham musulmonlarni buyurilgan, lekin miqdori va shartlari batafsil aytib o’tilmagan. Shu va shu kabi misollarni ko’plab keltirish mumkin. Bu kabi ko’plab hukmlarni to’liq anglash va hayotga to’liq tatbiq qilish uchun albatta insonlar orasida ularni eng yaxshi biluvchi insonga ya’ni Payg’ambar Muhammad (s.a.v.) ga murojaat qilish kerak. Shu o’rinda aytib o’tishim kerakki Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning gapirgan gaplari ham Yararatgan tomonidan berilgan ilhom asosida gapirilgan. Har bir gap o’zagida muammoning asl mohiyatiga yetuvchi yechim bo’lgan.

Muhammad (s.a.v.) Payg'ambar vafotlaridan so'ng sahobalar (Payg'ambar s.a.v. ni ko'rgan Uzot bilan suhbatda bo'lgan insonlar) hadislarni bir- birlaridan hech shak shubhasiz qabul qilishgan. Tobeinlar (Sahobalarni ko'rgan va ulardan dars olgan, ular bilan hamsuhbat bo'lgan insonlar) ham sahobalardan hadislarni qabul qilishda hech ham ikkilanishmagan. Bu holat to fitnalar boshlanmaguncha davom etgan. Islom dushmanlari tomonidan yolg'on yoki to'qima hadislar to'qib ularni xalq orasiga yoyish kabi holatlar boshlanguncha davom etgan. «Sahihu Muslim» kitobining muqaddimasida Ibn Sirinning ushbu so'zlari keltirilgan: «Oldinlari insonlarni so'ramasdilar, fitnalar sodir bo'la boshlagach, kimdan eshitgansizlar, bizlarga eshitgan kishilaringizni aytinglar, deyishadigan va sunnat ahlining hadislarini qabul qilib, bid'at ahlining hadislarini qabul qilmaydigan bo'ldilar».

Hadislarni yig'uvchi, sharhlovchi, ommaga targ'ib etuvchilar muhaddislar deyilgan. Hadislarning yuzaga kelishi 3 omil bilan bog'liqligi ko'rsatilgan:

1. Payg'ambarimiz (s.a.v.) tomonidan ko'rilgan yoki kuzatilgan ishning ta'qiqlanmagani.

2. Payg'ambarimiz (s.a.v.) tomonidan aytilgan gaplar.

3. Payg'ambarimiz (s.a.v.) ning qilib ko'rsatgan ishlari.

Shu 3 holatning hammasi sunnat deb atalgan.

"Sunnat" arabcha so'z bo'lib, "yo'l, odat" degan ma'noni anglatadi. Istilohiy ma'noda esa Muhammad s.a.v. ning qoldirgan urf-odatlari tushuniladi.

Islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra har bir musulmoneng avvalo iyminli bo'lishi kerak. Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi uch shartga qat'iy amal qilishi bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan:

- Tog’ri e’tiqodli bo’lish;
- Kishilar bilan yaxshi munosabatda bo’lish;
- Kishi o’z ustida ishlashi va o’zini ibodat va itoatga chaqirish.

Hadis va sunna ko’p o’rinlarda birgalikda ishlatiladi lekin aslini olganda bu ikkala so’z bir ma’noni anglatadimi, aynan nimasi bilan farqlanadi, shu haqida ham ozroq fikr yuritib ko’ramiz. Sunnat hamisha bizga hujjat bo’lishi mumkin hadisning hammasi ham bizga hujjat bo’lolmaydi. “Hadis va sunnat biri ikkinchisidan butkul farqli emas. Ya’ni ikkovida qarama-qarshilik ma’nolari yo’q. Balki hadis va sunnatning biri umumiyroq ikkinchisi esa xosroq ma’nolarni ifoda qoladi… gohida esa boshqa bo’ladi va sunnat bo’lmaydi. Ba’zi o’rinlarda ikkovi ham jamlanadi u hadis ham bo’ladi”.

“Uch nav rivoyatlar faqat hadisdir ular sunnat emas.

1. Mansux bo’lgan hadislar sunnat hisoblanmaydi.

2. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning o’zlariga xos hadislar.

3. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam mu’ayyan foydani ko’zlab bir gapni aytishlari yoki bir amalni bajarishlari”[6].

Har bir hadis amal qilinadigan xujjat bo’lavermasligi mumkin, lekin har bir sunnat shariyat hukumlariga asos bula oladigan dalil hisoblanadi.

Imom Muslim, Imom Termiziy, Ibn Moja, Abu Dovud va Imom Nasoiy ham Hadisshunos olimlar sanaladi.Lekin musulmon dunyosida tan olingan eng ishonchli Hadislar deb Imom Buxoriyning Hadislari xisoblanadi. Buxoriydan keyingi o’rinda Termiziy hadislariga ham murojaat qilishadi.

Har bir Hadis odatda ikki qismdan iborat bo’ladi. Sanad (hadisni rivoyat

qilganlar zanjiri). Ya'ni Muhammad (s.a.v.) payg'ambardan eshitgan shaxsdan to o'sha aytib berayotgan shaxsgacha bo'lgan zanjir to'liq sanalishi kerak agarda orada biron uzilish bo'lsa unday Hadisni sahih hadislar to'plamiga kiritilmagan. Rivoyatlarda keltirilishicha Buxoriy har bir eshitgan Hadisini sanad qismida keltirilgan shaxslarni birma-bir topib o'z og'zidan eshitib keyingina to'plamga kiritgan.

Hadisning ikkinchi qismini matn deyiladi. Matn qismida Hadisning mazmuni to'liq yoritiladi. Muhammad (s.a.v.) Payg'ambarning aytgan gaplari yoki buyurgan ishlari yoki aksincha qaytargan ishlari matn shaklida yoritib beriladi. Bu qismda Hadisni o'qigan o'quvchi o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotni topib xulosa chiqara oladi.

Shunday ekan, o'zimiz uchun kerak bo'lgan ma'lumotni avvalambor yaxshilab o'rganib ishonchli manbalarga tayangan xolda keyingina xulosa olishimiz mumkin.

Nafaqat islom dini, hech qaysi din insonni yomonlikka targ'ib qilmaydi. Shunday ekan inson hayoti davomida ma'naviy bo'shliqqa uchrab yo'lini yo'qotmaslik uchun qaysi dinda bo'lishidan qat'iy nazar o'z dini mohiyatini tushunib yashashi kerak. Islom dini vakillari avvalo Qur'oni Karimdan undan topolmagan hayotiy yechimlarini Hadisi Sharifdan topib to'g'ri xulosa oliushi kerak. Har qanday muammoga yechim toppish mumkin. Buning uchun eng ishonchli manbalarga suyanib to'g'ri yo'ldan hayotimizni davom ettiraylik. Kitob o'qigan insondan yomonlik chiqmaydi faqt manbada adashmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nigora Qarshiyevna Ochildiyeva. Imom al Buxoriyning pedagogik qarashlari. Toshkent. 2022, 340 b.

2. Dilshoda Ulkannazarova. Imom al Buxoriyning pedagogik g'oyalari. "Ma'rifat", 2022. 148 b.
3. www.wikipedia.uz. O'quvchi yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda hadis ilmining o'rni va roli.
4. Gulnozaxon Alijonova. «Kutubi Sitta» To'plamining shakllanishiga doir nazariyalar tahlili. T.: 2021, 202 b.
5. www.Hidoya.uz
6. Usmonxon Alimov. "Sunnat va Hadis". T.: 2021. 187 b.
7. Gulbaxor, M., & Bahodir, S. (2025). TIL O 'RGANISHDA CHATGPT, TARJIMA TIZIMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI. *TADQIQOTLAR*, *76*(3), 17-21.
8. Bakhodir, S., & Dilshoda, R. (2025). EASTERN THINKERS OF THE ERA OF THE FIRST RENAISSANCE. Global Science Review, 8(1), 682-687.
9. Шамсиддинов, Б., & Гуламов, М. (2023). ЛОГИЧЕСКИЕ СООТНОШЕНИЯ ФИЛОСОФИИ С ЛИТЕРАТУРОЙ. *Oriental Art and Culture*, *4*(3), 332-335.
10. YANGI, V. T. V. M., & YONDASHUVLARI, T. H. OZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI "ZAMONAVIY JAHON TARIXSHUNOSLIGIDA FARG'ONA.